

KONSTITUTSIYA VA FUQAROLIK JAMIYATI

Sattorova Muharram Abdurazzoqovna

*Toshkent shahar yuridik texnikumi o'qituvchisi,
yu.f.n.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi huquqiy poydevor sifatida o'rganilgan. Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi roli, qonun ustuvorligi tamoyillarining ahamiyati, va sud hokimiyatining mustaqilligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada erkin fuqarolik jamiyati uchun muhim bo'lgan demokratik institutlar, ko'ppartiyaviylik tizimi, va aralash saylov tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Maqola sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ixtisoslashgan sudlar faoliyati, jinoyat jazolarining liberallashtirilishi va sud jarayonida tortishuv prinsipi haqida ma'lumot beradi. Fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari sifatida qonun oldida tenglik, ijtimoiy adolat, va shaxs huquqlarining himoyasi keltirilgan.

Maqolada Konstitutsiya nafaqat asosiy huquqiy hujjat sifatida, balki davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish uchun mustahkam dastur sifatida ko'rsatilgan. Fuqarolik jamiyati huquqiy me'yorlarga asoslangan holda erkin va adolatli jamiyatni shakllantirishni ko'zlaydi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, ombudsman, majoritar saylov tizimi, proporsional, tamoyillar, aralash saylov, sud hokimiyati, odil sudlov.

1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'z ahamiyati va qadr-qimmatini nuqtai nazaridan, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning huquqiy poydevori sifatida tarix sahifalarida muhrlandi.

Ayni kunda Konstitutsiya mustaqillikning buyuk ne'mati sifatida barchamizga mo'tabar ijtimoiy-huquqiy qadriyatga aylandi. Konstitutsiyamizning oliy nufuzi shundaki, u inson baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ustuvor ta'minlash tamoyilini ongimizga singdirmoqda.

Fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning kamol topishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini to'la ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Erkin fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq, va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni, erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Shuning uchun barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart.

Konstitutsiya mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirishning asosiy poydevoridir. Konstitutsiya normalarini hayotga tatbiq etish jarayonida Oliy Majlis, Senat va Qonunchilik Palatasi, Konstitutsiyaviy sud, Vazirlar Mahkamasi, Ombudsman va yangi

mahalliy boshqaruv organlari - hokimliklar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimi tashkil topdi va shakllandi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri ko'ppartiyaviylik tizimini qaror toptirish hisoblanadi. Ko'ppartiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga erkin fuqarolik jamiyati uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bu 2024-yillning 27-oktabrida aralash saylov tizimi asosida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari, viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovida siyosiy partiyalarning o'zaro kurashida yaqol namoyon bo'ldi.

Holbuki, butun mamlakat ijtimoiy hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanmoqda. Demokratik tamoyillar fuqarolarimizning hayot tarziga chuqur singib bormoqda, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kengaymoqda.

Erkin fuqarolik jamiyatida qonun oldida barcha tengligi, ijtimoiy adolat ta'minlanishi, barcha fuqarolar ijodiy salohiyati va iste'dodining ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Erkin fuqarolik jamiyati huquq, va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Shuning uchun ham bu mezonlar jamiyatda qonuniylikni va huquq tartibotni ta'minlovchi sud, prokuratura, ichki ishlar, soliq, bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadiga aylandi.

Konstitutsiyaning 23-bobining 130-140-moddalari sud hokimiyatiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi ijro etuvchi hokimiyatlardan siyosiy patyalardan fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Konstitutsiya, asosida qabul qilingan qonunlarga ko'ra sudlar ixtisoslashtirilib, jinoyat ishlari, fuqarolik ishlari, iqtisodiy ishlar, ma'muriy ishlar bo'yicha bir-biriga tobe bo'lmagan alohida sudlar tashkil etildi. Har bir fuqaroning huquq va erkinliklari sud tomonidan himoyalaniishi, shuningdek, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi mustahkamlandi.

Jinoiy jazolar liberallashtirildi. Iqtisodiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar qoplangan holda qamoq bilan bog'lik bo'lmagan iqtisodiy ta'sir choralari qo'llanmoqda.

Odil sudlovni amalga oshirishning muhim shakllari yarashuv, apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida ish yuritish institutlari sud jarayoniga kiritildi.

Jinoiy jazo chorasi sifatida mol-mulkni musodara qilish qonunchilikdan chiqarildi. Sud jarayoniga tortishuv prinsipi kiritildi. Birinchi instansiya sudining sud majlisida,

shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuv asosida amalga oshiriladi.

Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirish, jamiyatda ijtimoiy adolat va qonunchilikni qaror toptirish fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlar bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoyalaydi. Zero, erkin fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini-o'zi kamol toptirishiga xizmat qiladi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, bu barcha fuqarolar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham bildiradi.

Konstitutsiya O'zbekistonda istiqomat qiladigan har bir fuqaro uchun aziz va muqaddas qonundir. U hayotda vujudga keladigan barcha muammolarning yechimini hal etishga javob beradi. Jamiyatning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi. Konstitutsiya mamlakat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida mayoq bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, asosiy qonunimiz davlatimizning aniq dasturi mavjudligidan, uning hayotiy yo'nalishlari puxta ishlab chiqilganligidan guvohlik beradi. Shu bois, uni hurmat qilish, unga amal qilish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent-2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. "Saylov qonunchiligi to'plami". «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, Toshkent – 2024.
3. Abdullayeva M. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2023.
4. Madiyev F. Shaxsiy huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: TDYU nashriyoti, 2023.
5. Narimanov B. Yakubov Sh. Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2023.
6. Qosimov B. Sud hokimiyati konstitutsiyaviy asoslar. O'quv qo'llanma. –T.: TDYU nashriyoti, 2023.